



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



O'ZBEKISTON – MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK TA'MINLANGAN YURT

Xayriyev Javohirbek Oybek o'g'li

Buxoro Davlat Universiteti

Mustaqil izlanuvchi

xayriyevjavohirbek56@gmail.com

+998907116388

Annotasiya. *Maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasida qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar, islohotlarning amalga oshirilishi hamda turli millat va din vakillariga bo'lgan e'tibor, yaratilgan sharoit, tinch-totuv va hamjihatlikda yashashga qaratilgan ishlar misollar asosida atroflicha yoritilgan. SHuningdek, o'tgan asrda yuzaga kelgan milliy va etnik nizolar, diniy mutassiblik g'oyalariining salbiy oqibatlari qiyoslash maqsadida qisman tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *millat, bag'rikenglik, totuvlik, hamjihatlik, munosabat, ta'minlash, yashash*

O'zbekistonda bag'rikenglik, hamjihatlik, millatlararo totuvlik ta'minlangan bo'lib, turli millat, elat va din vakillari yagona maqsad mushtarakligida emin-erkin yashab kelmoqda. Bu esa, tinchliksevar davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Binobarin, bu yurtda fuqarolarning vijdon erkinligi ularning millati, irqi va dinidan qat'iy nazar to'liq kafolatlangan hamda bag'rikenglik g'oyalari huquqiy jihatdan ta'minlangandir. Shu jihatdan, bugungi kunda turli millat va din vakillari o'rtasida hamjihatlikni yanada mustahkamlash, bag'rikenglik g'oyalariini qaror toptirish borasida keng qamrovli va izchil siyosat amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1998-yil 1-mayda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Yangi tahrirdagi qonun qabul qilingan bo'lsa, 2021-yil 5-iyulda mazkur Qonun o'zgartirish va qo'shimchalar asosida qayta isloh qilindi [1]. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning beshinchi yo'nalishi sifatida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash masalasining olinishi, bu borada, muhim amaliy ishlardan bo'ldi.

Shuningdek, millatlararo totuvlikni ta'minlash va o'zaro do'stona munosabatlarni mustahkamlash borasida ham qator huquqiy-normativ hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5876-son Farmoni hamda O'zbekiston





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 1018-son Qarori va boshqalarning qabul qilinishi dolzarb ishlardan hisoblanadi [2]. Shu jihatdan, bugungi kunda, 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 138 ta milliy-madaniy markazlar hamda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2300 ga yaqin diniy tashkilot [3] faoliyat yuritib, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan teng huquqlilik prinsipi asosida faoliyat yuritib, totuvlik va hamjihatlikda yashagan holda o'z ona tili, millat tarixi va madaniyatini o'rganish, o'sib kelayotgan yoshlarga o'z milliy qadriyatlarini yetkazish hamda bag'rikenglik g'oyalarini singdirish yo'lida faoliyat yuritib kelmoqdalar. Shuningdek, mamalakatimizdagi ta'lim muassasalarida o'qitish 7 tilda olib borilmoqda, ko'rsatuvlar 12 tilda namoyish qilinayotgan bo'lsa, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda nashr etilmoqda [3]. Albatta, bu kabi amaliy ishlar yurtimizda yashayotgan turli millat va din vakillariga bo'lgan e'tiborning ifodasidir.

Bilamizki, tinchlik va xavfsizlik ko'p jihatdan davlatning ichki siyosatiga bog'liq. Chunki davlatda yashayotgan fuqarolar o'zaro ahillikda, birdamlik, hamjihatlik va tinchlik-totuvlikda hayot kechirsa, mamlakatda barqarorlik bo'ladi, tashqi siyosatda ham rivojlanish, xalqaro munosabatlarda esa, hamkorlik aloqalari ijobiy va samarali yo'lga qo'yiladi. Shu jihatdan, Davlatimiz rahbari xalqaro tashkilotlarning uchrashuv va sammitlarida hamda bitim va kelishuvlarda, dunyo hamjamiyatini millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, mintaqaviy xavfsizlik masalalariga qaratib, aniq, puxta o'ylangan takliflarni ilgari surib kelmoqdalar. Jumladan, o'tgan yillar mobaynida Birlashgan millatlar tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Islom hamkorlik tashkilotining sammitlarida, shuningdek, bir necha bor o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarida xavfsizlik, mintaqaviy barqarorlik, diniy bag'rikenglik kabi dolzarb masalalar muhokama etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday uchrashuvlarning biri bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yig'ilishida, ***"Bugun Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnilik, bir-birini qo'llab-quvvatlash va hamkorlik solnomasida yangi sahifa ochildi"***, deb o'zaro hamjihatlik, hamkorlik, do'stona munosabatlarni mustahkam qaror toptirishga e'tibor qaratgan edilar[4]. Albatta davlatda yashayotgan turli millat vakillari bir osmon ostida birdam, ahil va hamnafas hayot kechirsa, yurt yanada rivojlanadi, tinchlik barqaror bo'ladi.

Yaqin tarixdan ma'lumki, turli milliy nizolar, qarama-qarshiliklar qanchadan-qancha talofatlarni, davlatlar o'rtasida nizo va urushlarni olib kelgan. Birgina o'tgan asr oxirlarida yurtimizda kuzatilgan Farg'ona va O'sh voqealarida [5] yoki istiqlolning ilk davrlarida diniy mutaassiblar tomonidan Namanganda hokimiyat uchun yuzaga kelgan namoyishlar, ichki tartibsizliklar, boshboshdoqliklar va eng yomoni qurbonlarni yuzaga keltirganligini xalq bugun azobli xotira sifatida eslaydi. Afsuski, bugungi davrda ham etnik nizolar, milliy ayirmachilik, shovinistik qarashlar, diniy mutaassiblik insoniyat uchun global muammo





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bo'lib turibdi. Sir emaski, davlatlar, bugun xalqaro maydonda milliy va etnik nizolar, diniy mutaassiblik tufayli yuzaga kelayotgan taloto'plar, janjalu urushlarni guvohi bo'lyapti. Aslida xalqaro ko'rinishdagi bu kabi nizolar ichki betartibliklar, beqarorlik oqibatida yuzaga kelmoqda. Bundan ko'rindiki, eng katta xavf bu ichki beqarorlik, tartibsizlikdir. Shuning uchun ham donishmandlar ichingdagi dushman eng xavfli dushmandir, deb bejiz aytmagan. Agar turli millat va din vakillari shovinistik ruhda yashasa va shunday harakat qilsa, o'sha davlat ildizidan emiriladi, halokatga, tanazzulga mahkum bo'ladi. Bugun ko'ryapmiz, birgina global muammo hisoblangan ma'naviy qashshoqlikning o'zi ko'plab xalqaro darajadagi falokatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Albatta birdamlik, hamjihatlik, ahillik, do'stona munosabatlar, degan tushanchalar zamirida ma'naviy yetuklik yotadi. Agar bir tom ostida yashayotgan turli millat va din vakillari ma'naviy yetuklik bilan harakat qilsa, hech qanday tashqi kuch o'z salbiy ta'sirini ko'rsata olmaydi. Davlat tomonidan yaratilgan barcha sharoitlar ham millat va din vakillarining manfaatlarini ko'zlagan holda totuvligini ta'minlashga, erkin yashashga qaratilgan. Bugun turli millat vakillari shu yurt fuqarosi kabi erkin va osuda yashamoqda, musaffo osmondan nafas olmoqda, barcha imkoniyatlardan foydalanmoqda.

Shu o'rinda, o'zbeklar orasida yashab qolgan rus millatiga mansub bir insonning ibrat olsa arziydigan samimiy munosabati va yashash tarzini misol sifatida keltirmoqchiman. Sasha amaki bugun 70 yoshni qarshilayotgan bo'lib, taxminan 30 yoshlarida Rossiyadan kelib, taqdir-taqozosi bilan shu zaminda yashab qolgan edi. Amaki uzoq yillar o'zbekona muhitda yashaganligi uchun uning qiyofasida, munosabatlarida ham o'zbeklarga xos milliy jihatlarni ko'rish mumkin. Har doim uchrashib qolsak, hech qachon atrofidagi insonlarga nisbatan befarq bo'lmaydi, aksincha, so'rashib, o'zbeklarga xos bag'rikenglik bilan hammani (deyarli mahalladagilarning hammasini taniydi) hol-ahvolini birma-bir so'rab chiqadi. Keksalar orasida Sasha amakini ko'rib qolsangiz, uni boshqa millat vakili, deb aslo o'ylamaysiz. Atrofidagilar bilan hamisha yuzida nim tabassum va samimiy munosabatga kirishadi. Sasha amaki kabi samimiy, bag'rikeng insonlar, atrofimizda talaygina. Bu kabi bag'rikenglik, tuz yegan joyiga sadoqatni koreys millatiga mansub bir inson suhbatida ham ko'rib, his qilgan edim. Xususan, O'zbekistonda muntazam o'tkazib kelinayotgan madaniyat (bugungi kunda bag'rikenglik) haftaliklarining birida, shu zaminda yashab, e'tibor topgan koreys millatiga mansub bir inson o'z suhbatida, o'zbek ayoli qo'lida mehr-muhabbat bilan voyaga yetgani, go'zal tarbiya topganini, bu yurt onalari, odamlari bolajon, mehmondo'st, bag'rikeng ekanligini va hamisha o'zbek xalqidan minnatdorligini ichki bir faxr, yuksak samimiyat bilan gapirib o'tdi. Bilamizki, bugungi kunda O'zbekistonda 200 mingdan ziyod koreys millat vakillari o'zbeklar bilan hamnafas yashab kelmoqda. Muhtaram Prezidentimiz O'zbekistonda istiqomat qilayotgan koreys millatining 80 yilligiga bag'ishlangan marosimda, "Mehnatsevarligi, qat'iy irodasi, ahilligi, intizomi, yerga mehri bilan, dunyoqarashimiz va madaniyatlarimiz o'xshashligi tufayli koreyslar O'zbekiston timsolida ikkinchi Vatanni topdi va uning munosib farzandi, ko'p millatli O'zbekistonning teng huquqli fuqarosiga aylandi, hurmat e'tibor qozondi. Xalqimiz shunday yurtdoshlari





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bilan faxrlanadi"[6], deb o'zbek va koreys madaniyatida mushtaraklik borligini, shuning uchun bu yurt ularning Vataniga aylanganligini ta'kidlagan edilar. Albatta, tinchlik, totuvlik, barqarorlikdan har bir fuqaro manfaatdordir. U qaysi millat vakili bo'lishidan qat'iy nazar konstitusiya va qonunlarda belgilangan talablar asosida yashaydi va barcha huquqlardan foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston millatlararo totuvlik, bag'rikenglik ta'minlangan yurtdir. Bu zamin hamisha bag'rikeng, mehmondo'st, ochiqko'ngil, insonparvar, tinchliksevar yurt sifatida turli millat vakillarini bag'riga olgan. Azal-azaldan bu zaminda turli millat vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, birdam, hamjihat bo'lib yashagan, quda-andachilik kabi milliy an'analarni va do'stona munosbatlarni qaror toptirgan. Albatta, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik ta'minlangan yurtda ma'naviy va moddiy rivojlanish bo'ladi. Yangi O'zbekistonning ertangi porloq kelajagi, buyuk davlatni bunyod etishdagi sa'y-harakatlari ko'p jihatdan milliy totuvlik, diniy bag'rikenglik masalalariga ham bog'liqdir. Shu jihatdan, ona yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro Vatanni qadrlagan holda hamjihatlik, birdamlik, totuvlikda harakat qilsa va shunday faoliyat olib borsa, davlat yanada rivojlanadi, ichki va tashqi siyosatida barqarorlik ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni // 06.07.2021. lex.uz.
2. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik birdamlik omili // 25.12.2019. qoraqalpoq.adliya.uz.
3. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik – yuksalish poydevori // 08.12.2020.isrs.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvidagi nutqi // 16 mart 2018. xs.uz//Xalq so'zi onlayn.
5. Azimova L. Yangi O'zbekistonning hamjihatlik pozitsiyasi // "Fanvatalim.uz" xalqaro ilmiy-metodik, ma'naviy-ma'rifiy elektron jurnal, 2021.
6. Koreys diasporasi – ko'p millatli O'zbekiston xalqining ajralmas bo'lagi // 18.11.2017. gazeta.uz.
7. Rahimov K. ????? O'zbekistonning iste'dodli yoshlari // Ilmiy ishlar to'plami, 3-kitob, TA'LIM NASHRIYOTI, 2021